

УДК: 911.3:314

*Mirzaliyev S.R.*

*Karimov Y.T.*

*Juraxujayev D.D.*

*Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchilari*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

## **URGUT TUMANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING**

### **O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Anotatsiya: Ushbu maqolada Urgut tumanining tabiiy sharoiti, demografik holati, xo'jalik tarmoqlari va ularning viloyat miqyosidagi tutgan o'rni haqida batafsil fikr yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: Tabiiy sharoit, demografik holat, aholi, tug'ilish, o'lim, yer fondi, qishloq xo'jaligi, sanoat.*

*Аннотация: В данной статье подробно рассмотрены природные условия, демографическое положение, отрасли хозяйства Urgutского района и их роль в масштабах области.*

*Ключевые слова: природные условия, демография, численность населения, рождаемость, смертность, земельный фонд, сельское хозяйство, промышленность.*

*Anotation: this article reflects in detail on the natural conditions, demographic situation, economic sectors and their role at the provincial level of the Urgut district.*

*Keywords: natural conditions, demographic status, population, birth, death, Land Fund, agriculture, industry.*

Urgut tumani mamlakatimizning eng rivojlangan ma'muriy birliklari biri hisoblanadi. Mazkur tuman 31-dekabr 1964-yilda tashkil etilgan. Maydoni 1,12 ming kv.km. Tuman Samarqand viloyatning janubiy-sharqiy qismida joylashgan bo'lib shimoliy-sharqda Zarafshon daryosi orqali Bulung'ur tumani, shimolda Toyloq, shimoliy-g'arbda va g'arbda Samarqand tumanlari, sharqda Tojikiston

Respublikasi, janubda Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 1120,3 km<sup>2</sup>. Aholisi 564 ming kishi (2022). Viloyat aholisini 13.1% ni tashkil qiladi. Tumanda bitta shahar (Urgut), 14 qishloq fuqarolari yig'ini (Baxrin, Beshbuloq, Jartepa, Ilonli, Ispanza, Mirzaqishloq, Beshkapa 1 va Beshkapa 2 Sanchiquil, Uramas, Yangiariq, Qoratepa, G'o's, Buloqboshi) bor. Markazi Urgut shahri.

Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, ukrain, tatar, yahudiy, ozarbayjon va b. millat vakillari ham yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 503 kishi (2022). Aholisi jinsiy tarkibi 52.9% ayollar, 47.1% erkaklar tashkil qiladi. Tug'ilganlar soni 16936 nafar. Shundan: 8858 nafari qiz bola, 8078 nafari o'g'il bola. O'lganlar soni 2806 nafar, shundan: 1584 nafari ayollar, 1222 nafari erkaklarni tashkil qildi (2022y). Tabiiy ko'payish 14130 kishi. Ko'chib kelganlar soni 109 nafar, ko'chib ketganlar soni 1082 nafar. Migratsiya saldosini -973 ni tashkil qildi (2022y).

Xo'jaligining yetakchi tarmoqlarini qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish va mahalliy sanoat tarmoqlari tashkil etadi. Tumanda sanoat mahsuloti hajmi 2081,2 mlrd so'm, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti 3860,4 ming so'm Samarqand viloyati tumanlari ichida Jomboy, Tayloq, Samarqand, Paxtachi tumanlaridan keyin 5 o'rinda turadi. Istemol mollari ko'rsatkichi bo'yicha 3436,4 ming so'm Tayloq, Jomboy, Samarqand, Paxtachi tumanlaridan keyin 5 o'rinda turadi (2022 yil dastlabki ma'lumotiga ko'ra). Tumandagi 800 dan ziyod korxonaning 52 tasi o'rta, 261 tasi kichik, 506 tasi mikrofirmalar. Marmarni qayta ishlash, g'isht, shlakbeton plitalar ishlab chiqarish, tamaki fermentatsiyasi, meva, go'sht, sutni qayta ishlash, non pishirish, qandolatchilik, har xil yaxna ichimliklar ishlab chiqarish korxonalari bor. Avtomobil, muzlatkich, televizor va radioappaturalarni ta'mirlash korxonalari ishlab turibdi. Urgut tumanida hunarmandchilik qadimdan rivojlangan. Hunarmandchilik bilan 3500 dan ziyod kishi shug'ullanadi. Urgut tumanida Belgiya bilan hamkorlikdagi «UrgGazkarpet» qo'shma korxonasi, O'zbekiston-Turkiya «UrgANTET YaShAM», «Urgut qoplon», «Urgut SaMNegin» gilam

ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatadi. Marmar toshni qayta ishlaydigan «Urgut LADO marmar», qurilish buyumlari ishlab chiqaradigan «Samplastik», tamakini qayta ishlaydigan «UzVAT» qo‘shma korxonalarini ishlab turibdi. Tuman qishloq xo‘jalik tamaki, g‘alla, sabzavot, kartoshka, meva, uzum hamda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan.

Urgut tumani 2022 yil (dastlabki) holatiga ko‘ra 4708,2 mlrd so‘mlik mahsulot yaratgan. Bu yaratgan mahsulotlarini hajmi bo‘yicha Samarqand viloyati tumanlari ichida Kattaqo‘rg‘on tumani (5392,8 mlrd so‘m) dan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

2023 yil yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatda ishlab chiqarish sanoati tarkibida Urgut tumanning ulushi boshqa hududlarga nisbatan yuqori hisoblanadi.

#### **Samarqand viloyati sanoatida Urgut tumaning ulushi (% hisobida)**

<b>T/R</b>	<b>Maxsulotlar</b>	<b>Samarqand viloyati</b>	<b>Urgut tuman</b>
1	Ishlab chiqaradigan sanoat	100	6.3
2	Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	100	3.1
3	Ichimliklar ishlab chiqarish	100	0.0
4	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	100	0.3
5	To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	100	11.1
6	Kiyim ishlab chiqarish	100	16.2
7	Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	100	58.2
8	Yog‘och va po‘kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to‘qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	100	6.2
9	Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish	100	43.0
10	Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	100	1.7
11	Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	100	0.0
12	Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	100	20.2
13	Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	100	0.0
14	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	100	9.5
15	Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	100	1.9
16	Metallurgiya sanoati	100	0.5
17	Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	100	20.4

18	Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	100	0.0
19	elektr uskunalar ishlab chiqarish	100	31.0
20	Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	100	1.6
21	Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	100	0.0
22	Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	100	0.0
23	Mebel ishlab chiqarish	100	5.9
24	Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	100	35.3
25	Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	100	6.4

*Mazkur jadval Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.*

Keyingi yillarda tuman uchun Pastdarg'om tumanida ajratilgan yerda paxta ham ekilmoqda. Tumandagi asosiy texnika ekini-tamaki. Urgut tumani yer fondi 112 ming ga ni tashkil etadi. 9 ming ga yerga tamaki, 14,8 ming ga yerga don ekinlari, 1,2 ming ga yerga kartoshka, 145 ga yerga sabzavot va poliz ekinlari, 2907 ga yerga yemxashak ekinlari ekiladi. Urgut tumanida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning o'sish suratlari 2010 yilda 97.7%, 2011 yilda 118.1% va 2022 yig'ilib 104.6 %ni tashkil qildi. Urgut tumani 1,4 ming ga yer bog' va tokzor bilan band, 46,8 ming ga yer yaylov. Tumanda 30.406 ming ga sug'oriladigan yer bor.

Tuman chorvachiligida qoramolchilik, parrandachilik, pillachilik yetakchi o'rinda. Yetishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarning asosiy qismi fermer va shirkat xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Urgut tuman hududi kichik bo'lsada reliefi tog', tog'oldi va tekisliklardan tashkil topgan. Bu esa o'z navbatida aholisi va uning joylashuvi bir biridan farq qiladi. Hududda aholi zich joylashgan aholining notekis taqsimlanishiga olib kelgan. Tuman sanoat mahsulotlari hajmi bo'yicha viloyatda yetakchi o'rinlarga ega. Qishloq xo'jaligida asosan donli ekinlar, poliz ekinlari hamda tamaki eng ko'p yetishtiriladi. Yuqoridagilardan ayon bo'ladiki, tumanning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash uchun bu borada yirik masshtabli tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Komilova, N. K., Haydarova, S. A., Xalmirzaev, A. A., Kurbanov, S. B., & Rajabov, F. T. (2019). Territorial structure of agriculture development in Uzbekistan in terms of economical geography. *J. Advanced Res. L. & Econ.*, 10, 2364.
2. Mukhamedov, O. L., Jurakhujaev, D. D. U., Shamuratova, O. B., & Yusupov, B. K. (2020). Territorial Aspects Of The Development Of Geodemographic Processes In Jizzakh Region. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 2(11), 12-16.
3. Murtazaev, I. B., Komilova, N. K., Khudoyberdiyeva, I. A., & Abdieva, Z. A. (2021). Some prospective directions of effective development of the economy of navoi region. *Psychology and education*, 58(1), 2047-2057.
4. Soliyev A. S., Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N., Zokirov S.S. *Aholi geografiyasi va demografiya asoslari – Toshkent :Tafakkur, 2011-y. 160 b*
5. O'zbekiston Milliy ensklopediyasi. -T.: O'zbekiston Milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2002y.
6. Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.